



O'ZBEKISTONDA TURIZMNING RIVOJLANISHI

Sharofiddinova Aziza Jamoliddinovna

Toshkent davlat iqtisodiyot Universiteti

Xalqaro Turizm fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada mamlakatda turizmga yo'nalishida amalga oshirilgan ishlarga to'xtalgan. Turizmning rivojlanishining bir necha bosqichlarda bo'lib tushuntirilgan. Turizmning rivojlantirishdagi qilingan ishlar asosan mustaqillikning ilk yillariga to'g'ri keladi.

Kalit so'zlar: turizm, rivojlantirish, amaliy, asoslar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat, xalq, xo'jalik, tarmoqlar, ta'sir doirasi, buyuk ipak yo'li.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida turizmning milliy modelini shakllantirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Ushbu modelda ta'kidlanishicha mamlakatda rivojlantirilayotgan turistik bozor boshqa har qanday bozorlar kabi mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatiga ta'sir ko'rsatadi. U mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda investitsiya va kapital oqimini ta'minlash darajalarini aniqlashda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyotii rivojlangan mamlakatlarda, asosan, xususiy va tijorat kompaniyalari turistlarga xizmat ko'rsatadi. Biroq, har qanday sharoitda ham davlat optimal iqtisodiy va huquqiy zaminni yaratgan taqdirdagina turizm rivojlanishi mumkin. Agarda davlat kasbiy tayyogarlik masalalari, tabiiy va madaniy muhitni muhofaza etish, axborot-reklama ishlari va rasmiyatchilikni soddalashtirish kabilar bilan shug'ullanmasa, u holda turizm kutilganidek rivojlanish darajasiga erisha olmaydi.



Bunda davlat tomonidan turizmni rivojlantirish, turistik xizmatlar bozorini shakllantirish, iqtisodiy tartibga solish usullari va richaglarini qayta isloh etish, turizmni tashkiliy boshqaruv strukturalarini takomillashtirish, uning eksport salohiyatini oshirish va eng asosiysi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish kabilarga tegishli uslubiy va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston o‘zining boy madaniy merosi, tarixiy obidalarini, go‘zal tabiati bilan turizmni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratayotgan davlatlardan biridir. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini ko‘paytirish vazifasi belgilangan. Xorijiy sayyohlar soni bo‘yicha O‘zbekiston pandemiyagacha kuzatilgan ko‘rsatkichning 98 foiziga yetdi. Xususan, 2019-yilda mamlakatimizga 6 million 748 ming nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 6 million 626 million nafarni tashkil etgani mamlakatimizda turizm sohasi jadal tiklanganidan dalolatdir. O‘zbekistonda xorijlik sayyohlarni yanada ko‘proq jalb etish maqsadida viza tartibini soddalashtirish, yangi yo‘nalishlarni o‘zlashtirish, ushbu sohaga oid loyihalarga sarmoya jalb etish, yirik tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, 2023-yilda umumiy qiymati 9,5 trln. so‘m bo‘lgan 508 ta loyiha amalga oshirildi. so‘mni tashkil etdi, bu esa 9492 ta yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini berdi. 183 ta yangi mehmonxona va 232 ta hostel ishga tushirilib, ularning umumiy soni 5526 taga yetdi, shuningdek, 810 ta yangi turistik tashkilot va sayyohlik agentliklarining ochilishi natijasida 452 ta oilaviy mehmon uylari tashkil etildi, umumiy soni 2649 taga ko‘paydi.

Mamlakatimizda turizmning yangi istiqbollari ochilmoqda, turli sohalarda keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, keyingi yillarda alpinizm, ot minish, tuya minish, velosport, offroad sayohatlari, baliq ovlash, rafting, geoturizm, ta‘lim turizmi, tibbiy turizm kabi yangi sayyohlik yo‘nalishlari ommalashmoqda. Qisqa vaqt ichida O‘zbekistonning turizm salohiyatini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan 16 ta



me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi. Mamlakatimiz turizm sohasining Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) talablariga muvofiqligini ta'minlash maqsadida turizm terminologiyasi va mehmonxona xavfsizligi talablari bo'yicha 2 ta yangi davlat standarti ishlab chiqildi va davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Bugungi kunda yagona milliy brendni yaratish O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning uzviy shartidir. Xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish, tematik festival va forumlar o'tkazish mamlakatimizning xorijda tanilishiga xizmat qilmoqda. Xorijiy ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston haqida tez-tez e'lon qilinayotgani bu sohani yanada rivojlantirish ob'ektiv zarurligidan dalolatdir. Shuningdek, Wanderlust jurnali talqiniga ko'ra "Eng tez o'sayotgan sayyohlik yo'nalishi", National Geographic Traveler talqini bo'yicha "Gastronomik turizm" nominatsiyasi hamda yakkaxon sayyohlar uchun eng xavfsiz beshta davlat qatoriga kiritilgani kabi turli mukofotlarga sazovor bo'lish ham bu boradagi muhim yutuqlardir. Bundan tashqari, turizm mahsulotini nafaqat tashqi, balki ichki bozorga ham targ'ib qilishni davom ettirishimiz kerak. Turizmni ommalashtirish uchun respublikamizning har bir hududining o'ziga xosligi bilan bog'liq tadbirlarni tashkil etish ham zarur. Madaniy, ko'ngilochar, sport, ko'rgazma va boshqa tadbirlarning dayjestlari, taqdimot videoroliklari, yagona yillik taqvimi yaratilishi, bizningcha, umuman, mamlakatimizda turizmni rivojlantirishning samarali vositasi bo'lishi shubhasiz.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda. Biroq, murakkab o'tish davri bilan bog'liq talaygina muammolar tufayli bu sohada ham ayrim kamchiliklar mavjud bo'lib bular haqida keyingi mavzularda atroflicha to'xtalib o'tamiz.



Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sherzod Ibroim O'Gli Ibroimov, & Saida Zunnunovna Mirzarahimova (2021). GEOGRAFIK NOMLARNING YOZILISHI VA TRANSKRIPSIYASI. Academic research in educational sciences, 2 (1), 789-798 doi: 10.24411/2181-1385-202100100
2. Шерзод Иброим ^ли Иброимов (2020). ГЕОГРАФИЯ ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАР БИЛИМИНИ НАЗОРAT ^ИЛИШ УСУЛЛАРИ. Academic research in educational sciences, (4), 412-417
3. Фуркат Туракулович Ражабов, & Азиза Абдуллаевана Олимова (2020). ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ЕЧИМИДА ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРНИНГ АХДМИЯТИ (ГЕОГРАФИЯ ТАЪЛИМИ МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, (3), 697-702
4. Шерзод Иброим Угли Иброимов, & Гулчехра Курдашевна Юсупова (2021). БОШЛАНЕИЧ СИНФЛАРДА У^УВ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ УЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ (ТАБИАТШУНОСЛИК ФАНИ МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, 2 (Special Issue 1), 370-378
5. Oybek Uralovich Abdimurotov (2021). "YEVROSIYO MATERIGI"NI O'QITISHDA "KEYS STADI" METODIDAN FOYDALANISH USULLARI. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021